


Xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 5584,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 112,0 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (26,0 %), savdo xizmatlari (23,3 %), moliyaviy xizmatlar (18,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %




Ma'lumot uchun: 2018-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 4600,2 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2018-yilga nisbatan (984,4 mld. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldindi 2019-yil yanvar-noyabr oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi (518,6 mld. so'mga) ko'paydi.

Ayrim xizmat turlari hajmining

taqqoslanishi, mld. so'm



Joriy yilning oldindi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (136,2 mld. so'mga), savdo xizmatlari (118,1 mld. so'mga), moliyaviy xizmatlar (96,5 mld. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (32,2 mld. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar
kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi mlrd. so'm	2018 yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5584,6	112,0
Nukus sh	3370,6	114,3
Amudaryo	198,7	106,9
Beruniy	200,3	107,0
Qorao'zak	60,8	107,5
Kegeyli	71,8	107,5
Qo'ng'irot	631,1	115,5
Qonliko'l	56,8	107,5
Mo'ynoq	31,7	106,9
Nukus t.	59,9	107,2
Taxiatosh	44,8	103,9
Taxtako'pir	58,4	107,0
To'rtko'l	263,8	105,4
Xo'jayli	240,3	103,0
Chimboy	97,8	106,5
Shumanay	52,4	105,7
Ellikqal'a	145,4	108,0

Shahar va tumanlar o'ttasida eng katta hajm Nukus sh. (3370,6 mlrd. so'm), Qo'ng'irot (631,1 mlrd. so'm), To'rtko'l (263,8 mlrd. so'm), Xo'jayli (240,3 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (31,7 mlrd. so'm) tumanida kuzatilmoxda.


2018-yilga nisbatan, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Nukus shahri (114,3 %), Qo'ng'irot (115,5 %) va Ellikqal'a (108,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Xo'jayli (103,0 %), Taxiatush (103,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**2019- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
umumi hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %**



Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'ttasida Nukus shahri (60,4 %), Qo'ng'irot (11,3 %) va To'rko'l (4,7 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'ttasida eng kam ulush Mo'ynoq (0,6 %), Taxiatosh (0,8 %), Shumanay (0,9 %), Qonliko'l (1,0 %), Taxtako'pir (1,0 %), Qorao'zak (1,1 %) va Nukus (1,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2964,0 ming so'mga teng bo'ldi. 2018-yilga nisbatan o'sish 110,3 % ni tashkil qildi.

2019-yil yanvar–dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 10622,8 ming so'm qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Taxiatush tumanida - 611,8 ming so'm qayd etildi.


2018 yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'irot tumanida - 114,2 % kuzatildi.



**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy
ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	2018 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	5584,6	112,0
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	345,1	109,9
moliyaviy xizmatlar	1003,9	163,3
transport xizmatlari	1450,0	103,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	804,0	101,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	166,4	104,1
savdo xizmatlari	1303,8	102,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlari	185,0	102,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	286,3	108,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	64,2	102,1
ijara xizmatlari	124,4	105,3
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	173,0	102,3
shaxsiy xizmatlar	214,6	106,4
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	107,3	109,9
boshqa xizmatlar	160,6	101,0

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %**



- | | |
|---|---|
| 1 Xizmatlar - jami | 8 Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 Sog'lqn ni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 Moliyaviy xizmatlar | 10 Ijara xizmatlari |
| 4 Transport xizmatlari | 11 Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 Shaxsiy xizmatlar |
| 6 Savdo xizmatlari | 13 Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 Boshqa xizmatlar |


2019-yil yanvar-dekabr oylarida 2018 yilga nisbatan moliyaviy xizmatlar (63,3 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (9,9 %); aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (9,9 %); kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**

Transport xizmatlari	26,0 %
Savdo xizmatlari	23,3 %
Moliyaviy xizmatlar	18,0 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,1 %
Shaxsiy xizmatlar	3,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,1 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0 %
Boshqa xizmatlar	2,9 %
Ijara xizmatlari	2,2 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,9 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,2 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (26,0 %), savdo xizmatlari (23,3 %), moliyaviy xizmatlar (18,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to`g`ri keldi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	1450,0 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	1303,8 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	1003,9 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	456,5 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	345,1 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	286,3 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	214,6 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	185,0 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	173,0 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	166,4 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (1450,0 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (1303,8 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlari (1003,9 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (345,1 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarining bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1303,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 77,2 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 15,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,1 % ni egallaydi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (378,3 mlrd. so'm), To'rtko'l (145,5 mlrd. so'm) va Xo'jayli (144,0 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq (17,2 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 1303,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi, 2018 yilga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 %.


2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



2018-yilga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Nukus shahri (107,9 %), Qo'ng'iroq (103,9 %), Qorao'zak (103,8 %), Qonliko'l (103,8 %) va Ellikqal'a tumanlarida (103,8 %).

Eng kam o'sish sur'ati Taxiatsosh (93,7 %) tumanida qayd etildi.

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
savdo xizmatlari ulushi, %**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni hududlar o'rtasida Nukus shahri (29,0 %) va To'rtko'l (11,2 %) tumani egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Mo'ynoq (1,3 %) va Taxiatosh (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 1450,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,2 %

**2019-yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (658,5 mlrd. so'm) va Qo'ng'irot tumanida (467,9 mlrd. so'm) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Mo'ynoq tumanida (3,4 mlrd. so'm) qayd etildi.


2018 yilga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Qo'ng'irot tumanida (118,6 %) kuzatildi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1003,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2018 yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 163,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi
71-230-82-15**